

Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.07.2025-yildagi PF-111-son

Farmonga ko'ra:

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tugatilib uning axborot sohasida nazorat va monitoring bo'yicha vazifa va funksiyalari Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasiga o'tkazildi;

Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha markaz Administratsiya bo'ysunuviga o'tkazildi;

Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi negizida Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi tashkil etildi;

Administratsiya Matbuot xizmati media-markazi negizida Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi tashkil etildi;

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi negizida Boshqaruv samaradorligi agentligi tashkil etildi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi Administratsiya bo'ysunuviga o'tkazildi.

2025-yil 1-sentyabrgacha quyidagilarga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqiladi:

byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, takrorlanuvchi nazorat funksiyalarini bekor qilish, qaror qabul qilishda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini oshirish;

hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish borasida mahalliy hokimliklar iqtisodiy, ma'muriy va moliyaviy vakolatlarini yana-da kengaytirish.